




SHHT SAMMITI OLDIDAN SAMARALI MULOQOTLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning taklifiga binoan 31-avgust kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘ilishi hamda “SHHT plyus” formatidagi uchrashuvda ishtirok etish uchun Bishkek shahriga keldi.



“Manas” xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Qasimaliyev va boshqa rasmiylar kutib oldi.

Prezidentimiz Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti doirasida bir qator xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Bishkek shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipin bilan muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari Xitoy yetakchisiga O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan yo‘llagan samimiy tabrigi hamda O‘zbekiston — Xitoy ko‘p jihatli munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissi uchun minnatdorlik bildirdi.

Kelgusi yilda mamlakatlarimiz o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilganiga 35 yil to‘ladi. Ushbu qutlug‘ sanani keng nishonlash bo‘yicha tadbirlar dasturini tayyorlash taklif etildi.

So‘nggi yillarda ikki tomonlama munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Barcha darajalarda aloqalar izchil mustahkamlanib, siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlik rivojlanmoqda, madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda.

Tomonlar tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi tizimli strategik muloqotni davom ettirish va parlamentlararo aloqalarni yanada chuqurlashtirish muhimligini ta’kidladilar. O‘zbekiston “yagona Xitoy” siyosati hamda “uch yovuz kuch”ga qarshi qat’iy kurashni doimiy qo‘llab-quvvatlashi qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikda alohida e’tibor qaratildi. O‘tgan yili ikki mamlakat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 18 milliard dollarga yaqinlashdi. Kelgusida uning yanada o‘shishiga ishonch bildirildi.

Yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 30 milliard dollarga yetkazish bo‘yicha yangi marrani belgilash taklif etildi. Shu maqsadda sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro

yetkazib berishni ko‘paytirish hamda O‘zbekiston korxonalarining Xitoyda o‘tkaziladigan savdo ko‘rgazmalarida faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davom ettiriladi.

Amaldagi qo‘shma investitsiya loyiholari portfeli qariyb 60 milliard dollarni tashkil etmoqda. O‘zbekistonda 6 mingdan ortiq qo‘shma korxona faoliyat yuritmoqda.

Energetika, kimyo sanoati, metallurgiya, qurilish materiallari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, transport va infratuzilma, qishloq xo‘jaligi hamda yuqori texnologiyalar sohalarida sanoat kooperatsiyasining istiqbolli yo‘nalishlari belgilandi. Raqamli iqtisodiyot, tog‘-kon sanoati, mineral resurslarni o‘zlashtirish va qayta ishlash sohalaridagi “o‘shish nuqtalari” kengaytiriladi.

Texnologik sheriklikning yorqin namunasi sifatida “BYD” kompaniyasi bilan elektromobillar ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik qayd etildi. Ishlab chiqarish quvvatlari va mahalliylashtirish darajasini oshirish rejalarini qo‘llab-quvvatlandi.

Xitoy kompaniyalariga O‘zbekiston hududlaridagi qo‘shma sanoat zonalarida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilishda yanada faol ishtirok etish taklif qilindi.

Xitoyning yetakchi moliya institutlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va ularning mamlakatimizdagi loyihalardagi ishtirokini kengaytirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Energetika sohasidagi hamkorlik yuqori baholandi. O‘zbekiston an’anaviy va muqobil energetika sohalaridagi sheriklikni kengaytirish hamda Xitoy kompaniyalarini tinch atom loyihalariga jalb etishdan manfaatdor.

Hududlararo almashinuvlar faol rivojlanmoqda. O‘zbekistonning barcha viloyatlari Xitoy provinsiyalari bilan faol hamkorlik qilib, ko‘pgina qo‘shma loyihalarni amalga oshirmoqda. May oyida Sian shahrida uchinchi Hududlar forumi bo‘lib o‘tdi.

Transport sohasidagi o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” strategik temir

yo‘lini qurish ishlari samarali davom ettirilmoqda. Mazkur yo‘nalish Yevrosiyo transport ekotizimining muhim bo‘g‘iniga aylanishi hamda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada kuchaytirishga ishonch bildirildi.

Muzokaralar davomida turizm va gumanitar almashinuvlarni kengaytirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tildi. Vizasiz tartib amal qilmoqda, ikki mamlakat shaharlari o‘rtasidagi aviaqatnovlar geografiasini kengaytirish va parvozlar sonini ko‘paytirish rejalarini muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Xitoy madaniyat markazlarini ochish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Yil yakuniga qadar Xitoyda O‘zbekiston madaniyati kunlarini o‘tkazish rejalashtirilgan. 2027-2029-yillarga mo‘ljallangan madaniy tadbirlar dasturini qabul qilish taklif etildi.

Ilm-fan, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohalaridagi hamkorlik mintazamlik kasb etgan. “Lu Ban ustaxonalari” va Konfutsiy institutlari faoliyati hamda hududlarda qo‘shma ta’lim loyihalarini rivojlantirish ishlari davom ettiriladi.

Xitoy tilini o‘rganishni, oliy ta’lim muassasalarini o‘rtasidagi ta’lim dasturlarini yanada kengaytirish hamda yurtimiz yoshlarining Xitoyda tahsil olishi uchun kvotalarni oshirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Kosmosni o‘zlashtirish hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlari qatorida qayd etildi.

“Xitoy — Markaziy Osiyo” formatidagi mintaqaviy sheriklikni yanada chuqurlashtirish va uning kelgusi yilda Xitoyda bo‘lib o‘tadigan uchinchi sammitiga tayyorgarlik ko‘rish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti Xitoy Raisini mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi. Uchrashuv har doimgidek ishonch, ochiqlik va do‘stlik ruhida o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va

ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil boshidan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 12 foizga oshdi.

Sanoat, energetika, metallurgiya, transport va iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida yirik qo‘shma loyihalarni amalga oshirish davom etmoqda.

O‘zaro savdoning ijobiy dinamikasini saqlab qolish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini jadallashtirish, shuningdek, hududlararo aloqalarni faol davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi faol madaniy-gumanitar almashinuvlarni kelgusida ham kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yetakchilar ikki tomonlama va ko‘p tomonlama formatlardagi bo‘ljak tadbirlar rejasini ham muhokama qildilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev SHHT sammiti tadbirlari doirasida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterish bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida BMT Bosh kotibi davlatimiz rahbari va O‘zbekiston xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi bilan samimiy tabriklab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

BMT va uning institutlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Antoniu Guterishning O‘zbekiston va BMT o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shayotgan shaxsiy hissasini yuqori baholadi. Bosh kotibning tashkilot tizimini isloh qilishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashini aytdi.

Faol muloqot va o‘zaro tashriflar hamda O‘zbekistonning BMTning saylanadigan organlari faoliyatidagi ishtiroki kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh

Assambleyasining 15 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Antoniu Guterish O‘zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda katta yutuqlarga erishayotganini olqishladi. Bu boradagi hamkorlikni yanada faol davom ettirishga tayyorlik tasdiqlandi.

Suhbat davomida xalqaro va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi. Bo‘ljak qo‘shma tadbirlar rejasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gorni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Serjio Gor davlatimiz rahbarini O‘zbekiston davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan samimiy tabrikkladi hamda AQSH Prezidenti Donald Trampning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — AQSH strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy muloqot, parlamentlararo va hududlararo aloqalarning ijobiy sur’ati hamda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning izchil kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Ustuvor yo‘nalishlarda, jumladan, energetika, transport, muhim mineralar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, qishloq xo‘jaligi sohalarida qo‘shma loyiha va tashabbuslarni ilgari surishni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

“C5+1” formati doirasida bo‘ljak tadbirlarga hamda O‘zbekiston-Amerika ishbilarmonlik va investitsiya kengashining navbatdagi yig‘ilishiga puxta tayyorgarlik ko‘rishga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Pokistonni Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislikni qabul qilayotgani bilan samimiy tabrikkladi.

Joriy yilning fevral oyida Islomobodga amalga oshirilgan tarixiy tashrif va bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvlar munosabatlarimizni yangi sifat bosqichiga ko‘targani alohida qayd etildi.

Muloqot davomida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va logistika bo‘yicha hamkorlik ko‘lamini yanada kengaytirish borasida fikr almashildi.

Uchrashuvda hududlararo hamkorlik va gumanitar yo‘nalishdagi aloqalarni rivojlantirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Xususan, joriy yilda Xiva shahrida Hududlararo forum o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rilayotgani hamda Pokistonda O‘zbekiston madaniyati va kinosi kunlarini tashkil etish rejalashtirilayotgani qayd etildi.

To‘qimachilik, tibbiyot, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va boshqa muhim sohalaridagi loyihalarni jadallashtirish maqsadida qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga kelishib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bishkek shahriga tashrifi doirasida VI Butunjahon ko‘chmanchilar o‘yinlarining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

“Bishkek-Arena” stadionida bo‘lib o‘tgan tadbirda SHHT davlatlari rahbarlari va boshqa mehmonlar ishtirok etdi.

Musobaqalarda 90 dan ortiq mamlakatdan 3 mingdan ziyod sportchi, jumladan, O‘zbekistondan 141 nafar vakil qatnashmoqda. Yurtdoshlarimiz 30 ta sport turi, xususan, kurash, sambo, armrestling, kamondan o‘q otish, ot sporti bo‘yicha bellashdilar.

Ishirokchilarga ko‘chmanchi xalqlarning boy madaniyati va tarixi, an’ana hamda urf-odatlariga bag‘ishlangan teatrlashtirilgan sahna ko‘rinishi namoyish etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg‘iz Respublikasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

SAMIMIY QUTLOVLAR

Mamlakatimiz davlat mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar, parlamentlar hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, ishbilarmon doiralarda vakillari, taniqli siyosat, jamoat va din arboblardan tabrik maktublari kelmogda.

Xorijlik hamkorlar o‘z maktublarida Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli



**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilinganining 35 yilligi munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz.

Mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo‘lidan ishonch bilan bormoqda hamda jahon maydonida haqli ravishda yuksak nufuzga ega.

Rossiya — O‘zbekiston munosabatlarini strategik sheriklik va ittifoqchilik xususiyatiga ega. Moskva va Toshkent o‘rtasida barcha asosiy yo‘nalishlarda sermahsul sheriklik, xalqaro masalalarda samarali o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan.

Ishonchim komilki, birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz bilan Rossiya va O‘zbekiston do‘st xalqlari manfaatlarini yo‘lida, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash maqsadida sheriklik aloqalarining butun majmuini yanada kengaytirishni ta’minlaymiz.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar, barcha vatandoshlaringizga esa baxt-saodat va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

**Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti**



**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Hurmatli Prezident Janoblari!

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan Sizga va do‘st O‘zbekiston xalqiga samimiy tabriklarim hamda eng ezgu tilaklarimni izhor etmoqchiman!

O‘tgan 35 yil davomida, ayniqsa, so‘nggi o‘n yilda Sizning rahbarligingizda O‘zbekiston o‘z taraqqiyotida salmoqli muvaffaqiyatlarga erishdi. Yangi davrdagi do‘st qo‘shni va har qanday sharoitdagi har tomonlama strategik sherik sifatida Xitoy tomoni bundan samimiy mamnun.

O‘tgan yili biz Siz bilan ikki bor uchrashib, Xitoy — O‘zbekiston munosabatlarini rivojlantirishning yangi rejalarini belgilab oldik. Davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarga alohida e’tibor qarataman va ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo‘lida Xitoy — O‘zbekiston umumiy taqdir hamjamiyatini barpo etishni ilgari surish borasida Siz bilan birgalikda sa’y-harakat qilishga tayyorman.

Mamlakatimizga ravnaq va farovonlik, O‘zbekiston xalqiga esa baxt-saodat, tinchlik va osoyishtalik tilayman!

**SI SZINPIN,
Xitoy Xalq Respublikasi Raisi**



**O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga**

Muhtaram Prezident Janoblari!

Amerika xalqi nomidan Sizga va O‘zbekiston xalqiga mamlakatimiz mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan samimiy tilaklarimni yo‘llayman. Ushbu shonli sana O‘zbekistonning boy tarixi va yuksak madaniyatini yana bir bor yodga olish uchun muhim va ayni muddao bo‘lgan fursatdir.

O‘zbekiston muhim va manzilli islohotlarni amalga oshirayotgani sari strategik sherikligimiz ham izchil ravishda kengayib, rivojlanib bormoqda. O‘tgan yil davomida biz umumiy manfaatlarimizni ilgari surish, jumladan, chegaralarimiz xavfsizligini ta’minlash, ikki tomonlama savdo va investitsiyalarni oshirish, energetika sohasidagi aloqalarni mustahkamlash hamda mintaqaviy bog‘liqlikni kengaytirish yo‘lida salmoqli ishlarni amalga oshirdik.

Qo‘shma Shtatlar hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini o‘rganar ekan, ikki tomonlama munosabatlarimizni yanada mustahkamlashdan umiddordir. Mustaqillik bayramini nishonlar ekansiz, Sizga va O‘zbekiston xalqiga eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Hurmat ila,

**Donald TRAMP,
Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti**

Davomi 2-betda



6 MEZON

2026-yil 1-sentabr, 180-son

YANGI O‘ZBEKISTON

Iftixor

Biz 35 YOSHDAMIZ



Bobur BOBOMUROD,
O‘zbekistonda xizmat
ko‘rsatgan
madaniyat xodimi

Goh oftob, goh do‘l o‘tar,
Goh kam-u, goh mo‘l o‘tar.
Karvon o‘tar, yo‘l o‘tar,
Umid-u, bardoshdamiz,
Biz o‘ttiz besh yoshdamiz.

Osonmas dunyo ko‘rmoq,
Tenglashib, kurash bermoq.
Birlashib soy-u irmoq,
Bir ulkan taloshdamiz,
Biz o‘ttiz besh yoshdamiz.

Qora terga g‘arq bo‘ldik,
Zulmat uzra barq bo‘ldik.
Millat bo‘ldik, xalq bo‘ldik,

Bitta ko‘z-u qoshdamiz,
Biz o‘ttiz besh yoshdamiz.

Shukr, yorug‘ yuzimiz,
Dunyo ko‘rdi ko‘zimiz.
Minbarlarda so‘zimiz,
Bugun to‘yda, oshdamiz,
Biz o‘ttiz besh yoshdamiz.

Vatan toza bo‘stondir,
Yangi O‘zbekistondir.
Orzu-niyat osmondir,
Oy ila quyoshdamiz,
Biz o‘ttiz besh yoshdamiz!

O‘ttiz besh yil dostoni

O‘ttiz besh yil, o‘ttiz besh dovon,
O‘ttiz besh yoz, o‘ttiz besh bahor
Olg‘a bosar qadimgi karvon,
Qadamida gul ochar nahor.

Uchib o‘tdi asrlar qushdek
O‘ttiz besh yil hayotdan nari.
Ko‘rgan umri qo‘rqinchli tushdek
Shu o‘ttiz besh yildan ilgari.

Yashamadi odamga o‘xshab,
Ota-bobo ko‘rmadi rohat.
Eslaganda og‘riydi qaqshab,
Vatan qalbidagi jarohat.

Bor-yo‘g‘ini erksiz boy berib,
Bu kunlarga yetmaganlar bor.
Chumolidek tinmay don terib,
Xirmonlari o‘pqonga nisor.

Ilmda kon ochganlarini
Asrab keldi avaylab dilda.
Uch ming yillab sochganlarini
Yig‘ib oldi o‘ttiz besh yilda.

Orzulardan tug‘ilgan hayot,
Azoblardan bunyod bo‘lgan zot.
Jahon ichra yashar barhayot
Erka zuryod baxtiyor, ozod!

O‘ttiz besh yil, o‘ttiz besh fasl,
O‘ttiz besh qish, o‘ttiz besh ta
Shamollarda tovlanmas asl,
Bo‘ronlarda ogoh, bedor ko‘z.



Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
madaniyat xodimi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

Zor-intizor ko‘zi ko‘karib,
Haqdan tilab olgan dilbandin,
Ulg‘aytirdi boshga ko‘tarib,
Mustaqillik — Vatan farzandin.

Ozodlik nur, ozodlik nodir,
Dunyoni kashf etgan dahodir.
Qudrati zo‘r, har ishga qodir
Shu o‘ttiz besh yoshi bahodir.

O‘ttiz besh yil asrga tatir,
O‘ttiz besh yil — o‘ttiz besh asr.
O‘ttiz besh yil hali ko‘rsatur
O‘ttiz besh ming asrga ta’sir.

Ko‘zimizda barq urar shodlik,
Gul yashnatdik chaman bo‘stonni.
O‘ttiz beshga to‘lgan ozodlik
Qurdi yangi O‘zbekistonni.

Yangrayotir yal-yali, sado,
Jo‘r bo‘lamiz, qo‘shiq avj, osmon.
Aytgan bilan bo‘lmaydi ado
O‘ttiz besh she‘r, o‘ttiz besh doston.

MOTURIDIYLIK – BAG‘RIKENGLIK, MO‘TADILLIK VA MA‘RIFAT TA‘LIMOTI

O‘zbekiston mustaqilligining 35 yillik shonli sanasi mamlakatimiz tarixida nafaqat iqtisodiy va siyosiy mustaqillik, balki ma’naviy va ma’rifiy o‘zlikni anglash, milliy va diniy qadriyatlarini qayta tiklash davri sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Istiqlol yillarida jamiyatda bag‘rikenglik va mo‘tadillik muhitini mustahkamlash, boy tarixiy-ilmiy merosni chuqur tadqiq etish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.



Mulohaza



Komiljon
SHERMUHAMMEDOV,
Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-
tadqiqot markazi direktori,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori,
dotsent

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiya-sida ma’naviy va ma’rifiy sohalarini isloh qilish markaziy o‘rin egallaydi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi diniy-ma’rifiy siyosat “Islom — ma’rifat va tinchlik dini” tamoyilini ham milliy, ham xalqaro miqyosda izchil targ‘ib etishga qaratilgan.

Ushbu tamoyil O‘zbekiston Prezidentining 2017-yil sentabrdagi BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida ham o‘z ifodasini topib, unda allomalar merosini o‘rganish, ma’rifiy islomni yoyish va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish ustuvor vazifa sifatida ilgari surilgan edi.

Qadim Movarounnahr zamini asrlar davomida islom sivilizatsiyasi va jahon ilm-fanining yirik

markazi bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu tabarruk zamindan yetishib chiqqan buyuk allomalar aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda islom ilmlari — kalom, fiqh, hadis va tafsir sohalarini rivojiga ham bebaho hissa qo‘shgan.

Mafkuraviy ildizlar

Buyuk mutafakkir, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiy va uning davomchilari tomonidan yaratilgan moturidiylik ta’limoti bugungi murakkab va tahlilali dunyoda ma’rifiy islom g‘oyalari ilgari surish va mutaassiblikka qarshi kurashda o‘zining dolzarbligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Imom Moturidiy islom ummati orasida paydo bo‘lgan turli adashgan oqimlarga qarshi aqliy va naqliy dalillarni uyg‘un holda qo‘llab, sof islom aqidasi himoya qilgan, o‘zidan keyingi asrlarda millionlab musulmonlar ergashgan mustahkam ilmiy maktabni shakllantirgan. Bejiz emaski, manbalarda u kishi “Hidoyat mayog‘i”, “Hidoyat imomi” va “Musulmonlar e’tiqodini tuzatuvchi” kabi sharafli unvonlar bilan e’tirof etilgan.

Moturidiylik ta’limotining eng muhim farqli xususiyati diniy manbalarni aql bilan uyg‘un holda talqin qilishdir. Imom Moturidiy aqlni ilohiy ne’mat va diniy ahkamlarni anglashning zarur vositasi deb bilgan. Uning yondashuviga ko‘ra, sog‘lom aql va to‘g‘ri naql hech qachon bir-biriga zid kelishi mumkin emas. Bu tamoyil islom tafakkurida aqliy qarashlar va falsafiy tahlillarning rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

Imom Moturidiy tafsir, kalom va fiqh asoslari kabi islom ilmlariga oid o‘ndan ortiq asar yozgan bo‘lib, ularning ayrimlariga bizgacha yetib kelgan. Allomaning eng mashhur va asosiy asari “Kitob at-tavhid” bo‘lib, unda ahli sunna e’tiqodi tizimli ravishda bayon qilingan. Asarning dunyoda ma’lum yagona qo‘lyozmasi Buyuk Britaniyadagi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Ushbu manba 1970-yilda Bayrutda, 2003-yilda Anqarada ilmiy-tanqidiy nashr etilgan.

Imom Moturidiyning “Ta’vilot al-Qur‘on” (“Qur‘on ta’villari”) kitobi moturidiylik ta’limotining tafsir sohasidagi eng muhim manbalaridan. Mazkur asar darslar jarayonida ta’lif etilgan bo‘lib, unda Qur‘on oyatlari, avvalo, boshqa oyatlar, so‘ng hadislar va arab tili qoidalar asosida sharhlangan. Shuningdek, turli adashgan firqalarning qarashlariga ilmiy raddiyalar berilgan.

Bizgacha to‘liq holda yetib kelgan ushbu manbaning ko‘plab qo‘lyozmalari O‘zbekiston, Misr Arab Respublikasi, Saudiya Arabistoni, Turkiya va Hindiston kabi mamlakatlar kutubxonalarda saqlanmoqda. Qo‘lyozmalar tarqalgan geografik ko‘lam musulmon Sharqida ushbu asar muhim ta’lim manbai sifatida o‘qitilganidan dalolat beradi.

“Ta’vilot al-Qur‘on” asarida muallif o‘z davrida faoliyat yuritgan mo‘taziliylik, xoriyiylik, rofiyiylik, karomiylik, jahmiylik va mushabbih kabi adashgan oqimlarning buzg‘unchi g‘oya va da’volarini aqliy hamda naqliy dalillar asosida atroflicha tahlil qilib, ularga ilmiy raddiyalar bergan.

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni izdan chiqarishga urinayotgan din niqobidagi mutaassib guruhlarning g‘oyaviy-tarixiy ildizlari yuqoridagi oqimlarga borib taqalishini inobarga olsak, mazkur asar ekstremizm va radikalizmga qarshi “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili asosida kurashishda o‘ta muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Moturidiylik ta’limoti tarix davomida olimlar, manbalar va madrasalar orqali, ya’ni sof ilmiy yo‘l bilan yoyilgan. Imom Moturidiy yashagan somoniylar davri (IX-X asrlar)da ta’limot asosan Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Nasaf va Kesh shaharlarida hamda Xurosonning Balx va Nishopur kabi ilmiy markazlarida o‘rganilgan.



Bugun moturidiylik ta’limoti Markaziy Osiyo, Turkiya, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Bolqon yarimorolidagi 20 dan ortiq mamlakatda keng tarqalgan. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra, dunyo musulmonlarining taxminan uchdan bir qismi e’tiqodiy masalalarda moturidiylik maktabiga ergashadi. Bu esa uning islom olamidagi eng yirik va ta’sirli aqidaviy ta’limotlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

Mustaqillik yillarida yurtimizda buyuk ajdodlar merosini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 2000-yilda Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, Samarqanddagi Chokardiza qabristonida alloma xotirasiga muhtasham maqbara bunyod etildi.

Boy ma’naviy merosni tadqiq etishning yuksak bosqichi

Yangi O‘zbekistonda ajdodlar boy ma’naviy merosini e’zozlash va chuqur tadqiq etish siyosati yuksak bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi bu yo‘ldagi eng muhim amaliy qadamlardan bo‘ldi.

Ushbu xayrli ishlarning mantiqiy davomi sifatida davlatimiz rahbarining “Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2025-yil 29-30-aprel kunlari Samarqand shahrida “Moturidiylik — bag‘rikenglik, mo‘tadillik va ma’rifat ta’limoti” mavzusida nufuzli xalqaro konferensiya o‘tkazildi.

Unda 25 mamlakatdan 70 ga yaqin vazirlar, taniqli olimlar, mutfiylar, moturidiyshunos mutaxassislar hamda 200 dan ortiq mahalliy ekspert ishtirok etdi. Tadbirda dunyoda o‘zaro nafrat va mutaassiblik ruhidagi qarashlar kuchayayotgan bir sharoitda moturidiylik ta’limotining zamonaviy ahamiyatini ochib beruvchi tadqiqotlarni kengaytirish taklifi ilgari surildi.

2026-yilga kelib, markaz faoliyati faqat fundamental tadqiqotlar bilan cheklanmay, zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashdi. Xalqaro miqyosdagi hamkorlik tubdan yangilandi. O‘tgan yillarda to‘plangan akademik tajriba joriy yilga kelib global loyihalar, raqamlashtirish, keng ko‘lamli xalqaro integratsiya va amaliy natijadorlikka aylandi.

Joriy yil 7-11-iyul kunlari esa ilk bor “Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi: tinchlik, bag‘rikenglik va ilm-ma’rifat yo‘li” anjumanini tashkil etildi. Unda 50 ga yaqin davlat va 8 ta xalqaro tashkilotdan qariyb 300 nufuzli mehmon qatnashdi. Forum doirasida “Imom Moturidiy merosi: bag‘rikenglik, tinchlik, ma’rifat, mo‘tadillik va aql-idrok poydevoni” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazilib, ta’limotning global xavfsizlik va ma’rifiy taraqqiyotdagi o‘rni atroflicha muhokama qilindi.

Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida o‘tkazilgan ushbu forum ajdodlar merosini o‘rganish, asrash va xalqaro hamjamiyatga yetkazish borasidagi davlat siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga chiqqanini namoyon etdi.

Bugun Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan moturidiylik ta’limotining ilmiy merosini chuqur tadqiq etish va xalqimizga yetkazish borasida salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, allomaning shoh asari “Kitob at-tavhid”ning yagona qo‘lyozmasi va zamonaviy nashrlarini qiyosiy o‘rganish asosida yangi ilmiy nashri tayyorlandi. Shuningdek, “Kitob at-tavhid” hamda “Ta’vilot al-Qur‘on” asarlari o‘zbek tiliga ilk bor to‘liq tarjima qilindi.

Markaz tomonidan 2020-2026-yillarda ilmiy-ma’rifiy yo‘nalishda 3 ta ilmiy-tanqidiy

matn, 85 ta kitob va 73 ta risola nashr etildi. Hududlarda “Jaholatga qarshi ma’rifat” shiori ostida 2000 dan ziyod tadbir o‘tkazildi. Moturidiylik ta’limotiga oid 500 dan ortiq mediamahsulot (ko‘rsatur, audio-videorolik, intervyu, podkast) va Imom Moturidiy hikmatlari aks etgan 50 dan ziyod material tayyorlanib, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilindi.

Xalqaro hamkorlik doirasida 20 ta anjuman, 25 ta uchrashuv, 200 ta ilmiy seminar, 52 ta xorijiy xizmat safari va xorijdagi vatandoshlar uchun 45 ta muloqot tashkil etilib, 17 ta ikki tomonlama anglashuv memorandumi imzolandi.

Mustaqillik sharofiga bilan obod qilingan Chokardiza qabristoni majmuasida hozir keng ko‘lamli bunyodkorlik va rekonstruksiya ishlari bajarilmoqda. Ziyoratgoh hududi kengaytirilib, yagona me’moriy ansambl shakllantirilmoqda. Loyihaga ko‘ra, Imom Moturidiy maqbarasi yanada ulug‘vor qiyofada qayta qad rostlaydi. Majmua atrofida muhtasham masjid va alloma merosini namoyish etuvchi innovatsion muzey barpo etilmoqda.

Xalqaro tashabbuslar

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy markazlari hamda mutasaddi tashkilotlar hamkorligida “Tamaddun” loyihasi konsepsiyasi va qo‘shma dasturi ishlab chiqildi.

2025-yil sentabrda BMT Bosh Assambleya-sining 80-sessiyasida Prezidentimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiyning boy ilmiy-ma’naviy merosini BMT kabi xalqaro maydonlarda keng taqdim etish tashabbusini ilgari surdi.

O‘tgan yil oktyabrda Samarqand shahrida o‘tkazilgan UNESCO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasida Prezidentimiz Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari salohiyatidan birgalikda foydalanish, ilm-fan, ta’lim va madaniyatlarga muloqot orqali bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash zarurligini ta’kidladi.

Mazkur tashabbuslar allomalarimizning boy merosini xalqaro maydonlarda namoyon etish, Islom sivilizatsiyasining madaniy-ma’rifiy va ilmiy mohiyatini ilgari surish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока”
gazetalari tahririyati” DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.

29305 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E‘lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60